



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI  
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO  
HAMKORLIK MASALALARI**

**Xalqaro ilmiy-amaliy  
konferensiya materiallari**



**2023-yil  
19-oktabr**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA  
XALQARO HAMKORLIK  
MASALALARI”**

**mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
materiallari**

**2023-yil 19-oktabr**

**Toshkent – 2023**

4. Mustaqillik davri soha terminologiyasining taraqqiyoti.
5. Soha terminlarining boyish usullari va yasash xususiyatlari.
6. Soha terminlarining sintaktik tuzilishi va xususiyatlari.
7. Soha terminlarining semantik xususiyatlari termin-metaforalar; terminlashish, determinlashish, transterminlashish jarayonlari.
8. Soha terminlarining mavzuiy guruhlari va tasnif.
9. O'zbek tili soha terminlarining leksik-semantik xususiyatlari: sinonimiya, antonimiya, polisemiya, omonimiya, paronimiya hodisalari.
10. Sohaga oid lug'atlarning xususiyatlari va tuzilish tamoyillari: manba, so'zlik, tarjima, izohlash usullari va tasdiqlovchi misollarni berish.
11. Soha terminlarini tartibga solish va tarjima.
12. Sohaga oid matn tuzish va tahrir.
13. Uslublarning turlari va xususiyatlari.
14. Ilmiy uslub va soha oid matnlar tahlili.
15. Rasmiy-idoraviy uslub va sohaga oid hujjatlar.

“O'zbek tilining sohada qo'llanishi” fani talabalarda o'zbek tili soha terminlarining yasash xususiyatlarini o'zlashtirib so'zlarni xatosiz yasash, sohaga oid so'z va terminlarni o'z o'rnida va to'g'ri ishlatish, soha terminlarining turli adabiyotlarda qo'llanishi bo'yicha fikr, taklif va xulosa berish, mutaxassis va talabalar uchun terminlarining so'zlik va izohli lug'atini tayyorlash, soha terminlarining semantik-struktural xususiyatlarni o'zlashtirib o'z va xalqaro terminlarning o'zbek tilida berilishi bo'yicha taklif va tavsiyalar berish, turli uslublarda sohasiga oid matnlar tuzish, hujjatlarni to'g'ri yozish va to'ldirish, mazmunli va mantiqli maqola, esse, taqriz, kurs va malaka ishi yozish kabi muhim malakalarni shakllantirishga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нufузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони <http://uza.uz/oz/documents/zbek-tilining-davlat-tili> <http://uza.uz/oz/documents/zbek-tilining-davlat-tili-sifatidagi-nufuzi-va-mav-eini-tubd-22-10-2019>
2. Husanov N., Miraxmedova Z. Iqtisodiyot atamallari va ish yuritish. O'quv qo'llanma. Toshkent, “IQTISOD-MOLIYA”, 2005, 123 S.
3. Stephen Bailey. Academic writing. Handbook for international student's. London, 2015.
4. Vikram Bisen Priya. Business communication. New Dehli, 2009.
5. Husanov N.A., Xo'jaqulova R. Sh. Biness muloqot va akademik yozuv. Toshkent, “IQTISOD-MOLIYA”, 2019, 319 S.

### **O'ZBEK TILINING KENG IMKONIYATLARINI YORITISH OMILLARI**

#### **FACTORS ILLUMINATING THE WIDE POTENTIALITY OF THE UZBEK LANGUAGE**

**Zulxumor Xolmanova Turdiyevna \***

*Annotatsiya:* Maqolada o'zbek tilining keng semantik imkoniyatlarga ega ekanligi ta'kidlangan, lug'aviy birliklarning ma'no xususiyatlarini aks ettirishda izohli lug'atlarning hamda tezauruslarning ahamiyati yoritilgan.

Tezauruslarning katta hajmdagi so'z jamlanmasi sifatidagi ko'rinishlari qadim davrlarga borib taqaladi. Keyingi davrlarda, xususan, eski o'zbek tilida yaratilgan lug'atlar ham tezauruslar namunasi hisoblanadi. Eski o'zbek tili lug'atlarining tuzilish tamoyillari hozirgi zamonaviy kompyuter tezauruslariga ham mos keladi. Ajdodlarimiz so'zlarni o'zlashtirishda

---

\*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori.

semantik guruhlarga asoslanishgan va lugʻatshunoslikda idrok, tafakkur imkoniyatlarini inobatga olishgan.

Tezaurus lugʻatlarning semantik imkoniyatlarni yoritish xususiyati semantik maydon tezauruslari, tarmoq tezauruslarida oʻz aksini topadi. Tezauruslarning konseptlarni, mental leksikonni aks ettirish imkoniyatini intertekstual tezauruslar misolida koʻrish mumkin.

Oʻzbek tilidagi tezaruslarning yaratilishi kognitiv tilshunoslik, semantikaga oid tadqiqotlar uchun manba sifatida xizmat qiladi, muayyan davrga xos faol hikmatlarni, doimiy ifodalarni aniqlash imkonini beradi. Oʻzbek tilidagi tarjimon dasturlarning maʼlumotlar bazasini kengaytiradi.

**Kalit soʻzlar:** tezaurus, semantika, semantik maydon tezaurusi, tarmoq tezaurusi, intertekstual tezaurus, mental leksikon, izohli lugʻat, ideografik lugʻat, kompyuter lugʻatlari.

**Abstract:** The article emphasizes the fact that the Uzbek language has wide semantic capabilities and shows the role of explanatory dictionaries and thesauruses in clarifying the semantic features of lexical units.

Thesauri as large collections of words arose in ancient times. Dictionaries created in later periods, including in the Old Uzbek language, are examples of thesauruses. The structural principles of Old Uzbek language dictionaries correspond to modern computer thesauruses. When studying words, our ancestors relied on semantic groups and took into account the possibilities of perception and thinking in lexicology.

The property of the semantic capabilities of thesaurus dictionaries is covered in thesauruses of the semantic field and network thesauri. The property of thesauri to reflect concepts and thoughts can be seen in the example of intertextual thesauri.

The creation of Uzbek thesauri serves as a source for research in cognitive linguistics, semantics, and allows us to identify active words and constant expressions characteristic of a certain period. Expands the base of Uzbek language translator programs.

**Keywords:** thesaurus, semantics, semantic field thesaurus, network thesaurus, intertextual thesaurus, mental lexicon, explanatory dictionary, ideographic dictionary, computer dictionaries.

Oʻzbek tili semantik jihatdan koʻp qamrovli til hisoblanadi. Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lugʻatayn” asrida oʻzbek tilining semantik jihatdan keng imkoniyatlarga, maʼnodoshlar, shakldoshlar tizimiga ega ekanligini misollar asosida nazariy jihatdan asoslab berdi.

Oʻzbek tilidagi lugʻaviy birliklarning maʼno qirralari, leksemalar semalari izohli lugʻatlarda oʻz ifodasini topdi. Bu jihatdan izohli hamda frazeologik lugʻatlar oʻzbek tilining semantik imkoniyatlarni aks ettiruvchi manba sifatida alohida eʼtiborga molikdir. Oʻzbek tilining izohli hamda frazeologik lugʻatlarining toʻldirilgan, takomillashtirgan holda qayta nashr etilishi tildan foydalanuvchilarga lugʻaviy birliklarning maʼno xazinasini keng yoyish uchun imkoniyat yaratdi.

Lugʻaviy birliklarning semantik imkoniyatini toʻliq namoyon qiladigan lugʻatlardan yana biri tezauruslardir.

Tezaurus (thesaurus) grek tilidan olingan boʻlib, «xazina» maʼnosini anglatadi. Tezaurus termini ikki xil maʼnoda ishlatiladi:

- 1) lingvistik tahlillarga asoslangan toʻliq maʼlumot yoritilgan lugʻatlarni;
- 2) inson yoki hisoblash mashinalarida bilimlarning muayyan sohasiga taalluqli tizimlashtirilgan axborotlar majmuyini ifoda etadi. Tezaurus tarkibidagi soʻzlar alfavit boʻyicha emas, balki mavzu va mavzular majmuyi sifatida shakllangan lingvistik lugʻat hisoblanadi.

Tezaurus – soʻzlar va soʻz birikmalari oʻrtasidagi turli bogʻlanishlar (munosabatlar) haqidagi axborotlarni saqlashga xizmat qiluvchi maʼlumotlar bazasidir.

Tezaurus aslida nafaqat voqelik haqidagi axborotni, balki yangi maʼlumotlarni qabul qilib olish imkoniyatini yaratuvchi metainformatsiyani (axborot haqidagi maʼlumotlarni) ham qamrab oladi [Xolmanova, 2019:102].

*Tezaurus* termini, birinchi navbatda, tilning lugʻat boyligini misollar bilan maksimal darajada ifodalovchi lugʻatlarga nisbatan qoʻllangan. Tezaurus tarixiga oid ilmiy manbalarda toʻplash vazifasidagi tezaurus lugʻatlarning shakllanishi qadim davrlarga borib taqalishi qad etilgan.

Kishilik jamiyatining keyingi taraqqiyot bosqichlariga kelib, tezaurus lugʻatlar takomillashdi. Tezaurus lugʻatlarning turli koʻrinishlari yuzaga keldi. Jumladan, oʻzbek tilshunosligi tarixida yaratilgan eski oʻzbek tili lugʻatlari tezaurus lugʻatlarning yorqin namunasi hisoblanadi. Eski oʻzbek tili lugʻatlari ijtimoiy-siyosiy ehtiyoj tufayli, xususan, turkiy til birliklarini arab, fors tillariga oʻgirish ehtiyoji hamda shu tillardagi lugʻaviy birliklarni eski oʻzbek tiliga tarjima qilish, soʻzlarning maʼnosini izohlash talabi asosida yuzaga keldi. Shu jihatdan mazkur lugʻatlarni tuzilish tamoyillariga koʻra ikki guruhga: ideografik va tarjima lugʻatlarga ajratish mumkin. Bu lugʻatlarda lugʻaviy birliklar, asosan, semantik guruhlar asosida joylashgan. Semantik guruhlash soʻz manosini idrok etish uchun qulay boʻlib, zamonaviy kompyuter tezauruslarida ham asosiy tamoyillardan biri hisoblanadi. Eski oʻzbek tili lugʻatlarining muayyan qismi Alisher Navoiy asarlari uchun tuzilgan lugʻatlar boʻlib, buyuk mutafakkir ijodining soʻz boyligi, hajm va mazmun koʻlamining kengligi bilan izohlanadi.

A.Nurmonov, ilmiy tadqiqotlarga tayangan holda, Alisher Navoiy asarlari yuzasidan yaratilgan lugʻatlar ichida “Sangloh” lugʻat maqolalarini joylashtirishda izchil va puxta tamoyilga amal qilinganini taʼkidlaydi:

1. Soʻz matndan ajratilib, alohida sarlavhaga chiqarilgan.
2. Soʻzning fonetik, orfografik izohi va undan hosil qilingan shakllar berilgan. Arab yozuvida bitilgan mazkur lugʻatda soʻzlarning yozilishida arab harflarining qaysi shakli yozilishiga eʼtibor qaratilgan. Sarlavha soʻzdan hosil qilingan shakllar izohi arab tilidan oʻzlashgan soʻzlarda faol kuzatiladi.
3. Sarlavhaga chiqarilgan soʻz va undan hosil qilingan shakllarning grammatik tavsifi keltirilgan.
4. Soʻz etimologiyasi yoritilgan.
5. Sarlavha soʻz va undan hosil qilingan shakllarning semantik tahlili berilgan.
6. Sarlavha soʻz va undan hosil qilingan shakllarning maʼno xususiyatlarini tasdiqlovchi materiallar keltirilgan.
7. Sarlavha soʻz va undan hosil qilingan shakllar maʼnolarining turk, arab, fors tillaridagi tarjimasi berilgan.
8. Oldingi mualliflar fikriga munosabat bildirilgan.
9. Ilovalar keltirilgan [Nurmonov, 2002:102].

Eski oʻzbek tili lugʻatlarining ushbu modellari zamonaviy kompyuter lugʻatlarida ham kuzatiladi. Bu esa ajdodlarimiz yaratgan tafakkur mahsullarining oʻzligini zamonaviy qiyofada namoyon etayotganini tasdiqlaydi.

Bugungi kunda dunyo tilshunosligida kompyuter tezauruslari keng koʻlamdagi maʼlumotlar bazasi sifatida xizmat qilmoqda. Jahon tilshunosligida tezauruslar milliy korpuslar tarkibida yoki alohida maʼlumotlar bazasi koʻrinishida mavjud.

Tezauruslar terminlar maʼnosini oʻzlashtirish omili sifatida ham talqin qilinmoqda. S.Bikova fransuz-rus yuridik terminologiyasini tezaurus modellari asosida tahlil qilgan [Bikova,2006:15]. B.Suyunov oʻzbek tili tibbiy terminlari tezaurusi maʼlumotlar bazasini shakllantirar ekan, ikki koʻrinishdagi tezaurus modellarini keltiradi: semantik maydon asosidagi

tezarus modeli, tarmoq tezaurus modeli [Suyunov,2023]. Semantik maydon asosidagi tezaurus modellari tushunchalarni maydon ko‘rinishda aks ettiradi, ular o‘rtasidagi o‘xshash va farqli belgilarni ajratish imkonini beradi. Tushunchalar o‘rtasidagi iyerarxik, gipo-giperonimik, partonimik, assotsiativ munosabatlarni yoritish uchun keng imkoniyatlar maydoni sifatida xizmat qiladi. Tarmoq tezaurus modeli bir so‘z doirasida keng ma‘lumot berishga qaratilgan bo‘lib, so‘z semantikasini maxsus model talablari asosida ochib berishga xizmat qiladi. Masalan, *tuz* (ot) leksemasining tarmoq tezaurusi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

<b>Tuz</b>	
<b>So‘zning morfologik belgisi</b>	Tuz (narsa oti)
<b>Talaffuzi</b>	Tuz//tus
<b>Semantik tarkibi</b>	<p>a) o‘z ma‘nosi: molekulari tarkibiga kislota qoldig‘i bilan bog‘langan metall atomlari kirgan murakkab moddalar; shu birikmaning ovqat uchun ishlatiladigan bir turi (natriy xlorid).</p> <p>b) ko‘chma ma‘nolari:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- <i>tuzini ko‘rmoq</i> – ovqat ta‘mini chuchmal, raso yoki sho‘r ekanligini bilish maqsadida totib ko‘rmoq;</li> <li>-yemoq, totmoq.</li> <li>-umuman, ovqat, yegulik-ichgulik narsa: <i>tuz totmaslik – och yurish</i>;</li> <li>- kimsaning boshqa odamga bergan, yedirgan-ichirgan (yegan-ichgan) ovqati: <i>tuz bermoq; tuzini yemoq (ichmoq)</i>;</li> <li>-<i>ma‘nisiz, sifatsiz</i> – Tuzsiz she‘rlarim, deb, shirindan shirin, Bolalarim yurar oyoq uchida (Muhammad Yusuf).</li> </ul>
<b>Omonimi</b>	<p><b>TUZ II</b> Tekis yer, keng tekislik; foydalanilmay yotgan yer, bo‘z yer, qo‘riq.</p> <p><b>TUZ III</b> \r\ kart. O‘yin turiga qarab eng katta yoki bir ochko (bir xol) qiymatga ega bo‘ladigan karta [O‘TIL, IV,180].</p>
<b>Sinonimi</b>	<i>namak</i> (ko‘chma ma‘nodagi sinonimlari: <i>taom, yegulik, yaxshilik, ma‘nisiz</i> )
<b>Antonimi</b>	-
<b>Giperonimi</b>	kimyoviy modda
<b>Giponimi</b>	osh tuzi, lax tuz, ishqor, qizil tuz, oq tuz
<b>Etimologiyasi</b>	“kukun holdagi, gard ko‘rinishidagi modda”
<b>O‘zakdoshlari</b>	<i>Tuzli, tuzsiz, tuzdon, tuzliq</i>
<b>Frazeologizmlar tarkibida qo‘llanishi</b>	<i>Tuz(i) ko‘r qilmoq, tuz yalamoq, tuzini yeb (ichib), tuzlug‘iga tuflamoq (yoki tupurmoq), tuzini oqlamoq (yoki halollamoq), tuzini totmoq, yarasiga tuz sepmoq</i>
<b>Birikmalar tarkibida qo‘llanishi</b>	<i>Tuz yalamoq, tuzini ichmoq, tuz solmoq, tuzini ko‘rmoq, tuz olmoq, tuz sotmoq, tuz koni, tuz xillari, taom tuzi</i>
<b>Boshqa tillarda qo‘llanishi</b>	Rus tilida: <i>sol</i> Ingliz tilida: <i>salt</i>

Hozirgi vaqtda tezaurus kompyuter tizimlarida so‘zlarni qidirishda qo‘llanuvchi, internet va mashina tarjimasini bilan bog‘liq holda paydo bo‘lgan lug‘atlarni ham o‘z ichiga oladi.

Tezaurus til qamrovi darajasiga ko‘ra bir qancha turlarga bo‘linadi. Tezauruslar nafaqat soz, leksema ko‘rinishidagi tushunchalarni, balki verbal ko‘rinishda ifodalanmagan

konseptlarni, tafakkur birliklarini, idrok bilan bog‘liq belgilarni ham aks ettiradi. Shunday lug‘atlardan biri intertekstual tezauruslardir. Intertekstual tezauruslar mental leksikonni ifodalay oladigan, assotsiativ tafakkurga asoslangan lug‘atlardir.

Til kishilik jamiyati taraqqiyoti asosida yuzaga kelgan, sotsial munosabatlarning shakllanish jarayonida takomillashgan, inson ongining rivojlanish darajasiga bevosita aloqador bo‘lgan murakkab ijtimoiy fiziologik, biologik hodisadir. Antroposentrik yo‘nalishdagi, xususan, psixolingvistika, kognitiv tilshunoslikka oid manbalarda “mental leksikon” tushunchasi ko‘p qo‘llanadi. Mental leksikon aqliy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lib, tafakkurdagi tushunchalarni ifoda etadi. Mental leksikon lug‘aviy birliklarning lisoniy ongda aks etishi hamda tizimlashtirilishi bilan bog‘liq tafakkur mahsulidir. Mental leksikon tushunchasi mental va leksikon asoslarining lug‘aviy ma‘nosiga ko‘ra shakllangan. *Mental* mentalitet nom ot leksemasining atributiv shaklidir. *Mentalitet* lotincha “aql”, “idrok” ma‘nosidagi *mens*, *mentis* so‘zlarining nemis tilidagi *mentalitat* shakli asosida yuzaga kelgan. Mentalitet –jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, madaniy salohiyati, hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlardagi aqliy qobiliyati, ruhiy quvvati (jamiyat, millat yoki shaxsning mentaliteti ularning o‘ziga xos an‘analari, rasm-rusmlari, urf-odatlar, diniy e‘tiqod va irimlarini ham qamrab oladi) [O‘TIL, II, 583]. *Leksikon grekcha* lexikon “lug‘at” ma‘nosini ifodalaydi. Leksikon –ma‘lum bir kishining so‘z va iboralari, biror ijtimoiy qatlam yoki muayyan faoliyat sohasiga mansub umumiste‘moldagi so‘zlar zaxirasi [O‘TIL, II, 499].

Mental leksikon insonga ma‘lum hamda muloqot qilish uchun zarur bo‘lgan barcha tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Tadqiqotlarda mental leksikon “ta‘riflab bo‘lmaydigan ma‘lumotlar ombori” deb ham tavsiflanadi. Lisoniy ongda tushunchalar ombori shartli ravishda leksion “lug‘at” atamasi bilan yuritilmoqda. Mental leksikon semantikaga asoslanadi. Mental leksikon narsa-buyum, voqelik, uning elementlari va ularga oid ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Mental leksikon nutq tuzish jarayonida so‘zlarni tartiblash, muvofiqlashtirish funksiyasini bajaradi. Shaxsning ijtimoiy muhit ta‘sirida o‘zgarishiga muvofiq tarzda takomillashib boradi. Ma‘lumotlar ombori sifatida shaxs lisoniy ongidagi bilimlar bazasi uzviy ravishda boyib borishi, davrga xos tushunchalarning turg‘unlashuvi, ayrim birliklarning barqarorlashuvi kuzatiladi.

Mental leksikonda so‘zlar qofiya, omonimlik, sinonimlik, antonimlik, uyadoshlik, assotsiativlik, asosdoshlik, talaffuz, qo‘llanish miqdori asosida joylashadi. Mental leksikonda *kirish leksikoni* va *chiqish leksikoni* degan tushunchalar mavjud. Mental leksikon tavsifiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda insonlarda nutqiy jarayonni amalga oshirishda aqliy, fiziologik, neyrolingvistik mexanizmlar umumiyliigi, ammo mexanizmlar orasidagi protseduralar farq qilishi aytib o‘tilgan [Bayeen, 1999]. Mental leksikon inson muloqotida faol qo‘llanadigan tushunchalar, uning yashash manzili, atrof-muhiti, muloqotda bo‘lgan shaxslar bilan bog‘liq til xotirasi bilan aloqador. Mental leksikonni millat vakillari va til sohiblari uchun umumiy bo‘lgan belgilar hamda shaxs idrok, tafakkuri, voqelikni qabul qilish darajasi bilan izohlanuvchi xususiy belgilar tashkil etadi. Mental leksikon – tildagi so‘zlarning ongda shakllanishi, xotirada saqlanishi, ifoda etilishining tizimli asosidir [Kavitha, 2003]. Psixologiyada insonning tafakkur faoliyati haqida so‘z yuritilganda, hissiy bilish bilan bir qatorda, til va nutqning o‘zaro bog‘liqligi alohida qayd etiladi. Bunda inson psixikasining o‘ziga xosligi namoyon bo‘ladi. Tafakkur so‘zda o‘zining moddiy qobig‘iga ega bo‘ladi, tafakkur faqat so‘z orqali boshqalar uchun reallikka aylanadi. Inson tafakkurini, u qanday shaklda bo‘lmasin, tilsiz ifoda etib bo‘lmaydi. Har qanday fikr nutq bilan chambarchas bog‘liq ravishda paydo bo‘ladi va rivojlanadi. U yoki bu fikr qanchalik chuqur va asosli suratda takomillashgan bo‘lsa, so‘zlarda, og‘zaki va yozma nutqda shu

darajada aniq, yaqqol ifodalanadi. Fikrning soʻz orqali ifodalanish darajasi uning takomillashgani, aniqligidan dalolat beradi [Xolmanova,2020:45].

Intertekstual lugʻatlar *inter* – “oʻrtasida, aro” , tekst – “matn” tushunchalari asosida shakllangan boʻlib, matn ichida matn kelishini ifoda etadi. Intertekstuallik – matn mazmunining boshqa matn orqali toʻldirilishi, boyitilishi, sayqallanishidir.

Matnlar orasida nafaqat matn parchasi, balki yaxlit matn ham kelishi mumkin.

*Intertekstuallik* fransuz olimasi Y. Kristeva tomonidan 1967-yilda ilmiy muomalaga kiritilgan. Bu termin ilk bor olimaning «Baxtin, soʻz, dialog va roman» nomli ilmiy risolasida qoʻllangan va hodisaga taʼrif berilgan.

Oʻzbek badiiy adabiyoti uchun intertekstuallik hodisasi yangilik emas. Mumtoz adabiyotimizdagi *irsoli masal, talmeh, tazmin, nazira* kabi badiiy sanʼat turlari intertekstuallikning yorqin namunalaridir. Bu tushunchalarning badiiy matndagi vazifasi va shakli intertekstuallik hodisasiga, uning mohiyatiga mos keladi.

Til sohibi muayyan aloqa-munosabat vositasini egallar ekan, muayyan tarixiy-ijtimoiy davr uchun xarakterli boʻlgan, nutq madaniyatining maʼlum bir koʻrinishi uchun xoslangan, turli koʻrinishdagi lisoniy jamiyatlarning shaxsiyatlariga xos boʻlgan pretsedent fenomenlarni qamrab oladi. Tilshunoslikda muayyan til sohiblariga yaxshi tanish boʻlgan va ularning lisoniy xotirasida saqlanadigan, nutqiy faoliyatda qayta-qayta murojaat qilinadigan shaxs nomlari, barqaror soʻz birikmalari, jumlar hamda matnlar pretsedent birliklar sifatida qayd etiladi.

Dunyo tilshunosligida, xususan, rus tili intertekstual tezauslarida milliy tafakkur uchun umumiy boʻlgan barqaror ifodalar bilan bir qatorda keng tarqalgan stereotiplar ham aks etgan [Solomina, 2008:11].

Oʻzbek tilidagi “Innankeyinchi?”, “Siz oʻshami?”, “Oʻgʻlim, ovqatingni yemaysanmi?”, “Falonchining ketmoni uchdi”, “Hamma raqsga tushsin!”, “Hukm qatʼiy– shikoyatga oʻrin yoʻq!”, “Onamdan qolgan toshoyna qani?” kabi mashhur ifodalar til sohibi ongiga qaysidir asar personajini, film qahramonini va u bilan bogʻliq voqelikni eslatadi. Intertekstual tezauslar davriy xarakterga ega boʻlib, uni maʼlum zamonda va makonda yashagan til sohiblarigina idrok eta oladi.

Intertekstual lugʻatlar lisoniy ong, idrok, tafakkur, konsept tushunchalarini izohlashda ahamiyatlidir va kognitiv tilshunoslik, semantikaga oid tadqiqotlar manbasi sifatida xizmat qiladi.

Oʻzbek tilida soʻzlashuv nutqida maqollardan, “Sulaymon oʻldi, devlar qutuldi”, “Alining qilichi” kabi doimiy ifodalardan keng foydalaniladi. Alisher Navoiygacha, Navoiy davri va undan keyingi bosqichlarda keng qoʻllangan talmeh sanʼati tarixiy koʻrinishdagi intertekstual lugʻatlarni yaratish imkonini beradi. Bu lugʻatlar orqali har bir davrda faol qoʻllangan hikmatlar, pretsedent birliklarni aniqlash mumkin boʻladi.

Oʻzbek tilidagi semantik maydon, tarmoq, intertekstual tezauslarni yaratish lugʻaviy birliklarning semantik xususiyatlarini, shakl va maʼno munosabatini, tushuncha va konsept munosabatini, nutqiy faoliyat tabiatini, nutq mexanizmini yoritishda tilshunoslik va adabiyotshunoslik yoʻnalishidagi tadqiqotlar uchun manba vazifasini oʻtaydi. Shuning barobarida oʻzbek tili asosidagi tarjimon dasturlar uchun maʼlumotlar bazasi sifatida xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Bayeen C. *Lexicon & Psycholinguistic: Mental Lexicon Models*. – BB, 1999. Qarang: Maʼmurova X. Soʻz maʼnosini oʻzlashtirishining psixolingvistik omillari. Magistrlik dissertatsiyasi. –Toshkent, 2023.
2. Быкова С.Е. *Тегаурное моделирование юридической терминологии (на материале французского языка в сопоставлении с русским)*. – Екатеринбург, 2006.
3. Kavitha V. & Kannan P. *Comprehensive Overview of Bilingual Mental Lexicon and Vocabulary Learning: Psycholinguistic Approach in Language Pedagogy*. – School, 2003.



- Ma'mirova X. So'z ma'nosini o'zlashtirishining psixolingvistik omillari. Magistrlik dissertatsiyasi. –Toshkent, 2023.
- 4.Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. –Тошкент:Ўзбекситон, 2002.
- 5.Соломина Н.В.Интертекстовой тезаурус современной языковой личности (на материалах письменных текстов СМИ, КВН и интеллектуальных игр. Автореф. ...канд. филол. наук.–Екатеринбург, 2008.
- 6.Суюнов Б. Тиббий терминлар семантикаси ва тезауруси. Филол. фан. док. (DSc). дисс. –Тошкент, 2023.
- 7.Xolmanova Z. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent, 2019.
- 8.Xolmanova Z. Tilshunoslik nazariyasi. –Toshkent: Nodirabegim, 2020.
- 9.О‘ТИЛ –О‘zbek tilining izohli lug‘ati. –Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. I –680 b.; II– 672 b.; IV. –Toshkent, 2008. –608 б.

## **TOPONIMLARINING TASHQI VA ICHKI SEMANTIK BELGILARGA MUNOSABATI (SHIMOLIY TOJIKISTON TOPONIMLARI MISOLIDA)**

### **RELATIONSHIP OF TOPONYMS TO EXTERNAL AND INTERNAL SEMANTIC SIGNS (EXAMPLE OF TOPONYMS OF NORTH TAJIKISTAN)**

**Turdibekov Mo‘minjon \***

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada toponimik tizim ko‘p asrlik tarixiy bosqich mahsuli ekanligi, toponimlarning ko‘pchiligi tashqi va ichki semantik belgilar bilan bog‘liq jihatlari Shimoliy Tojikiston toponimlari misolida tahlilga tortilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Boshtovoq, Toshkalla, G‘o‘lakandoz, Tuyatosh, Bo‘tako‘z, Choltosh, Kattaog‘aliq, Tozak, Kichikshibor.*

***Annotation:** In this article, the analysis on the example of toponyms of northern Tajikistan draws on the fact that the toponymic system is a product of a centuries-old historical stage, most of the toponyms are associated with external and internal semantic features.*

***Keywords:** Boshtovok, Toshkalla, G‘olakandoz, Tuyatosh, Botakoz, Choltosh, Kattaogalik, Tozak, Kichikshibor.*

Har qanday tilning toponimik tizimi ma'lum bir davr, ma'lum bir ijtimoiy-siyosiy qarashlarninggina mahsuli emas, balki toponimiya tizimi til onomastik sistemasining ko'p asrlik rivoji mahsulidir. Nomlarning paydo bo'lish tarixi va asoslari unutilsa-da, har qanday toponimning til mahsuli sifatidagi xususiyatlari saqlangan bo'ladi. Bu ko'pgina nomning yasalishi va grammatik strukturasi tahlil qilish orqali belgilanadi. Ayniqsa, iste'moldan chiqqan nomlar o'rnini to'ldirish, yangi obyektlarga yangi nomlar berish muayyan lisoniy qonuniyatlar asosida amalga oshadi. Obyektga nom berishda til imkoniyatlari bilan subyektning tashqi – obyektiv sabablari mushtarakligi asos bo'lar ekan, toponimlarda atash semasi ularning belgi anglatishiga ko'ra ham voqelanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu nuqtai nazardan Shimoliy Tojikiston toponimlarini quyidagi mikroguruhlariga ajratish mumkin bo'ladi: 1. Shakl-ko'rinish jihatidan. 2. Hajm-o'lchov jihatidan. 3. Maza-ta'm ma'nosini anglatishiga ko'ra. 4. Rang-tus bildirish jihatidan. 5. Ba'zi o'ziga xos belgilariga ko'ra.

Shimoliy Tojikistonda bir qancha toponimlar shakl-belgiga asosan nomlanganligining guvohi bo'lish mumkin. Ya'ni geografik hudud o'xshatish, qiyoslash, nom ko'chish va boshqa mezonlar asosida paydo bo'lgan. Masalan, Jabbor Rasulov tumanidagi Qurama tizma tog'larida joylashgan yaylovning nomi *Boshtovoq*, Xitoy qishlog'i yaqinidagi adir *Toshkalla*, G'olakandoz

---

\* Filologiya fanlari doktori (DSc), professor. Renessans ta'lim universiteti.